

DENOV DENDRARIYSIDAGI BURCHOQDOSHLAR (FABACEAE) OILASIGA MANSUB AYRIM MANZARALI DARAXTLAR.

Xalmuratov M.A.

b.f.n., DTPI

Isroilova D. F.

talaba, DTPI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11115221>

Annotatsiya. Ushbu maqolada denov dendrariysidagi burchoqdoshlar (Fabaceae) oilasiga mansub *Sophora japonica* L. va *Albizia julibrissin* Durazz larning botanik tavsifi, tarqalish areallari, tabiatdagi o`rni va bioekologik xususiyatlari keltirilgan.

Kalit so`zlar: *Sophora japonica*, *Albizia julibrissin* L, iqlim sharoiti, manzarali o`simliklar, introduksiya, maxsudorligi, manzararaliligi.

TREES BELONGING TO THE FABACEAE FAMILY AT THE DENOV ARBORATORY.

Abstract. This article presents the botanical description, distribution areas, place in nature and bioecological characteristics of *Sophora japonica* L. and *Albizia julibrissin* Durazz belonging to the Fabaceae family in the Denov arboretum.

Key words: *Sophora japonica*, *Albizia julibrissin* L, climatic conditions, ornamental plants, introduction, specificity, scenicity.

ДЕРЕВЬЯ СЕМЕЙСТВА БУКОВЫЕ В АРБОРАТОРИИ ДЕНОВ.

Аннотация. В статье представлены ботаническое описание, ареалы, место в природе и биоэкологическая характеристика софоры японской L. и *Albizia julibrissin* Durazz, принадлежащих к семейству Fabaceae, в дендрарии Денова.

Ключевые слова: софора японская, *Albizia julibrissin* L, климатические условия, декоративные растения, интродукция, специфика, живописность.

Manzarali o`simliklar insonga yaxshi kayfiyat va ko`tarinki ruh bag`ishlashidan tashqari, atrof muhit havosini tozalashda, shovqinni va yozning jaziramasida xaroratni pasaytirishda, uni namlab turishda boshqa vositalar bilan almashtirib bo`lmaydigan darajada katta ahamiyatga ega.

Bunday introdusentlar qatoriga kiruvchi *Sophora japonica* L., *Albizia julibrissin* Durazz ning kelgusida mamlakatimiz xalq xo`jaligida, jumladan, aholi sog`lig`ini saqlashda muhim ahamiyatga ega o`simliklardan sanaladi.

Yapon soforasi (*Sophora japonica L.*) balandligi 20 m yetadigan daraxt. Yosh novdalari tukli bo'lib, yashil-sarg'ish rangli po'stloq bilan qoplangan. Barglari toq patli murakkab, qisqa bandi balan shoxlarda ketma-ket joylashgan. Bargchalari 5-7 juft cho'ziq ellipssimon, cho'ziq tuxumsimon yoki keng lansetsimon, o'tkir uchli, uzunligi 23-53 mm, eni 11-21 mm. Gullari sariq rangli, kapalaksimon tuzilgan bo'lib, ro'vaksimon to'pgulni xosil qiladi. Gulkosachasi naysimon, besh tishli, changchi gullari birlashmagan, mevasi 3-8 sm uzunlikdagi, pishganda ochilmaydigan, etli, qisqa bandli, tasbehsimon dukkak. Dukkaklari tuksiz 2-8 urug'li, bir oz shilimshiq-achchiqroq mazali bo'lib, to'q qo'ng'ir-qora ranga bo'yalgan .

Tuxumak may oyida gullaydi, gullari oq-sariq, kapalaksimon bo'lib, novdasining uchida shingil-ro'vak hosil qiladi. U nektar chiqarib turadigan o'simlik. Dukkagi oktabr oyida yetiladi, u daraxtga osilib turadi. Dukkagi oktabr oyida yetiladi, u daraxtda osilib turadi, seret, sirti cho'tir, pallalarga ajralmaydi, yelimsimon suyuqlik bilan to'la, avval yashil bo'lib, so'ng to'q qizil rangga kiradi.

Urug'i qora bo'lib, loviyaga o'xshab ketadi. U bahorda sepilsa, 10-15 kundan so'ng unib chiqadi. O'q va yon ildizlari baquvvat bo'lib rivojlanadi, to'nkasidan ko'karadi. Daraxt tarkibida zaharli modda bor, ammo undan hayvonlar zaralanmaydi. Tuxumakning yog'ochi o'zakli, qattiq.

Mevasidan sariq rang bo'yoq olinadi. Bu daraxt Yaponiya va Xitoyda tabiiy holda o'sadi.

Sovuqdan Denov iqlim sharoitida qisman zararlanadi, yorug'sevar o'simlik, yer tanlamaydi, sho'rtob tuproqda ham o'sadi va qurg'oqchilikka chidamli. Tuproqni yomg'ir yuvib ketishidan saqlash uchun uni tog'larga ekish muhim ahamiyatga ega. Ko'kalamzorlashtirish ishlarida keng qo'llash tavsiya etiladi.

Turkistonda yapon soforasi 1875 yilda keltirilgan bo'lib, o'tgan asrning 20 yillaridan ko'kalamzorlashtirish maqsadida keng miqyosida o'stirildi.

O'zbekistonda XIX asrning o'rtalarida aholi yashaydigan manzillarda o'stirila boshladi.

O'simlikni itroduksiya qilish tadqiqotlari 1914 yildan Qarshi va Termiz temir yo'llarini qo'rish jarayonlarida keng miqyosida boshlandi. Tezlikda temir yo'l stansiyalarini ko'kalamzorlashtirish uchun manzarali o'simliklarni yetishtiradigan pitomniklar tashkil etildi, bu manzarali o'simliklar hozirgacha saqlanib shuningdek ko'paytirilib kelinmoqda. Hozirgi paytda daraxtning balandligi 17 metrga, poyasi diametri 38 sm gacha, yon shoxlari 14-15 metrgacha yetmoqda.

Ipak akatsiyasi *Albizzia julibrissin Durazz.* birmuncha keng arealga ega, tabiatda Ozarbayjan, Eron, Xitoy va Yaponiyada uchraydi. Ozarbayjonning Talish degan joyida (Respublikaning janubiy Kasbiy bo'yi) o'sadi. Ironda mamlakatning shimoliy qismi Kasbiy bo'yi Elburus tizmasida mavjud.

Xitoyning Yunnan, Guychjou, Guansi, szyansi, Xubiy, Xebey provinsiyalarida ya'ni mamlakatning janubiy va janubiy-sharqiy qismida tarqalgan. Yaponiyaning esa Xonsyu, Xokkaydo, Kyusyu, Sikoku orollarida o'sadi. Ipak akatsiya AQSh da 1749 yilda, Yevropa mamlakatlariga esa XVIII asrda madaniylashtilgan. 1749 yildan Italiyada shuningdek Yevropaning botanika bog'larida iqlimlashtirildi. Rossiyaga XIX asrda tabiiy arealidan (Ozarbayjon), shuningdek Eron va Xitoydan keltirildi. Daraxt ko'kalamzorlashtirish maqsadida ko'pgina Kavkaz respublikalarida, Qrimda, Ukrainada (Odessada) o'stiriladi. Markaziy Osiyoga ipak akatsiya XIX asrning ikkinchi yarmida ya'ni o'zga hudud o'simliklarini ommaviy introduksiya qilish vaqtida keltirilgan.

Samarqandning pitomnigida 1879 yildan va 1885 yildan Farg'onada ko'p miqyosida burchoqdoshlar oilasi vakillari parvarish etildi. Ko'chatlari Samarqand, Toshkent, Farg'ona va boshqa shahar xiyobonlarida, bog'larida keltirib o'tkazildi. 1889 yilda Farg'ona shaharining atrofida "yashil hudud" xosil qilish uchun o'stirilgan. Ammo sug'orish tadbirlarining yetishmasligi va qattiq qishning sovuqlari ta'sirida nobud bo'ladi.

Denov tumaninig turli geografik hududlarida vegetatsiya davrini ma'lum ketma ketlikda boshlaydi. Bu esa baxorning qanday kelishidan qat'iy nazar saqlanib qoladi. Xaroratning asosiy omil bo'lgani xolda mazkur jarayon o'simlikning tabiiy arealida mustaxkamlangan genotipik xususiyatlar tomonidan boshqarib boriladi. O'simliklarning mavsumiy rivojlanish maromi tashqi muhit ta'sirida turning tarixiy taraqqiyotini aks ettiradi. Xar yilgi meteorologik omillar (issiqlik, yog'ingarchiik, atmosferaning nisbiy namligi va boshqalar) o'simlikning mavsumiy rivojlanishiga o'z ta'sirini kursatib turadi. Introduksiya sharoiti o'simlikning tabiiy arealidagi sharoitga mos kelganda ularni yaxshi iqlimlashganligi qayd qilingan. Turli o'simliklar baxorgi vegetatsiyani turli paytda boshlaydi. Ko'plab ilmiy manbalarda u yoki bu turga mansub o'simliklar mavsumiy rivojlanish davrini foydali xaroratlar yig'indisi ma'lum darajaga yetganda boshlanishini ko'rsatuvchi dalilalarni uchratamiz.

O'rganilgan daraxtlarni yuqori haroratga munosabatiga ko'ra-o'rtacha chidamli, sug'orishga bo'lgan talabi-o'rtacha, past haroratga munosabati-chidamli, vegetativ ko'payishi-kuchsiz, tabiiy ekilish-o'rtacha, kasallik va zararkunandalarga chidamliligi-zararlanmaydi.

Demak Surxondaryo viloyati hududida manzarali daraxt sifatida o'stirish imkoniyati kengligi sababli bu introdusent o'simliklarni ochiq dala sharoitida keng qamrovli ko'paytirish mumkin.

REFERENCES

1. Белолыпов И.В. Краткие итоги первичной интродукции растений природной флоры Средней Азии в Ботаническом саду АН УзССР // Интродукция и акклиматизация растений. – Ташкент: АН УзССР, 1976. – № 13. – С. 9-58.
2. Бойсунов Б.Х., Жанубий Ўзбекистонда Мелия (*Melia*L.)ларнинг гуллаш биологияси// Ўзбекистон биология журналы.– Тошкент, 2004. – № 3. – Б.
3. Вульф Е.В., Малеева О.Ф. Мировые ресурсы полезных растений. –Л.: Наука, 1969. – 427 с.
4. D. G. Sodikova, M. A. Xalmuratov, M. K. Hamroyeva, Sh. U. Mardonov, and S. E. Toshmirov. Ecology of micromycetes of higher plants of the Denov Arboretorium. BIO Web of Conferences 105, 06003 (2024) <https://doi.org/10.1051/bioconf/202410506003>
5. D.G. Sodikova, B.S. Sodikov, Sh.U. Mardonov, IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science **1112**, 012120 (2022). <https://www.doi.org/10.1088/1755-1315/1112/1/012120>
6. Ёзиев Л.Х., Хайитов И.Ю. Итоги интродукции некоторых древесных представителей сем. FabaceaeLindl. в условиях Каршинского оазиса. Карши, 2013.-168 с.
7. Хайитов И.Ю., Ёзиев Л.Х. Дуккакдилар оиласига мансуб дарахт ўсимликларини Жанубий Ўзбекистонда иқлимлаштириш ва уларнинг хўжаликдаги аҳамияти. Конф. матер. т.5. Қарши, 1994. –Б.42-44.
8. Тахтаджян А.Л. Систематика и филогения цветковых растений. – М.- Л.: Наука, 1966. – 611 с.